

**Baxtiyorova Nozima**  
**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2 – kurs talabasi**  
**Karimov Ulug'bek Nusratovich**  
**Ilmiy rahbar/ supervisor: PhD**

---

## **AHMAD MUHAMMAD TURSUNNING “SOHILSIZ DENGIZ” ASARI HAQIDA**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada iste'dodli yozuvchi Ahmad Muhammad Tursun qalamiga mansub “Sohilsiz dengiz” asariga munosabat bildirilgan. Asardagi Imom al – Buxoriy obrazini ochib berishga e'tibor qaratilgan. Asardagi bosh va yordamchi g'oyalar tahlil qilingan. Yozuvchining ushbu asarni yozishdan maqsadi va uning bugungi kundagi ahamiyati haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** Ahmad Muhammad Tursun ijodi, “Sohilsiz dengiz” romani, Imom al – Buxoriy obrazi, komil inson, ustoz – shogird an'anasi, muhaddis - olim, “Al – Jome As – Sahih”, hadis, roviy, ezgu fazilatlar, asardagi bosh va yordamchi g'oyalar.

**Annotation:** In this article, there is a reaction to Ahmad Muhammad Tursun's novel “Shoreless Sea”. Attention is paid to revealing the image of Imam al – Bukhari in the novel. Analysis of the main and auxiliary ideas in book. The writer's purpose from writing this book and the importance of this book today.

**Key words:** The work of Ahmad Muhammad Tursun, the novel “Shoreless Sea”, the image of Imam al – Bukhari, a perfect person, the tradition of teacher – student, muhaddis – scientist, “Al – Jome As – Sahih”, hadith, rovi, virtues, the main and auxiliary ideas in the novel.

---

Hayoti davomida samarali ijod qilgan, o'zining diniy va tarixiy mavzulardagi asarlari bilan kitobxonlar ko'nglidan joy olgan, birgina so'zda bir nechta ma'noni jam qila oladigan mohir so'z ustasi, iste'dodli yozuvchilardan biri Ahmad Muhammad Tursundir. U 1949 – yili Namanganda tavallud topgan va u jurnalist sifatida ko'p yillar davomida matbuotda faoliyat olib borgan. Uning ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u bir qancha yillik ijodiy faoliyati davomida “Sohilsiz dengiz”, “Ko'hna dunyo rivoyatlari”, “Ulug'lar shunday yashashgan”, “Siz qanday yashamoqchisiz?”, “Dunyoni tebratgan buyuklar”, “4 dengiz osha sayohat”, “Islom hazorasi” va yana bir qancha kitoblari kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi.

Yozuvchiga katta shuhrat keltirgan, uning eng mashhur asarlaridan biri bu “Sohilsiz dengiz” romanidir. Ushbu asarda Islom olamining buyuk muhaddisi, ulug' vatandoshimiz Imom al – Buxoriyning hayot yo'llari, ilmiy faoliyatlari, tavalludidan to umrining oxirigacha bosib o'tgan mazmunli va ibratli gohida oson gohida mashaqqatlarga to'la bo'lgan hayoti yorqin yoritib berilgan. Asarning har bir bobida Imom al – Buxoriyning shogirdlari va zamondoshlari tomonidan aytilgan Imom Buxoriy haqidagi fikrlar iqtibos sifatida keltirilgan.

Asarning birinchi bobi Hofiz Ibn Hojar Asqaloniyning shunday fikrlari bilan boshlanadi: “Agar keyingilarda Imom Buxoriyni maqtash eshiklari ochiladigan bo'lsa, uning madhiga qog'ozlar yetmay, nafaslar toqat qila olmay qolur. Zero, u bamisoli sohili bo'lmagan dengiz erur”. [1] Darhaqiqat, biz Imom Buxoriy dahosini o'rganishda davom etar ekanmiz, har safar buyuk ajdodimizning yangi qirralarini kashf qilamiz. Ushbu asarni o'qish davomida ham biz bu yetuk siymoni ko'z oldimizda qaytadan kashf etamiz. Ayniqsa, asarning Imom Buxoriy otasi va onasi Fotimaning uchrashuvidan boshlab, Muhammadning dunyoga kelishi, uning bolaligi, o'smirligi,

ilmi tolib bo'lgan yillari, ustozlik yillari va hadis yig'ish maqsadida qilgan ko'plab mashaqqatli safarli haqida xronologik syujet tartibda hikoya qilinishi bizga Imom Buxoriyni yanada kengroq tanishimizga yordam beradi.

“Asarning g'oyasi asar mazmunida – undagi umumlashma, emotsional, obrazli fikrda ifodalanadi.” [3] Ushbu asarning bosh g'oyasi –butun hayotini hadis to'plash, tahqiq va tadqiq qilish, ularni keyingi avlodlarga yetkazishga bag'ishlagan Imom Buxoriyning hasbi hollari,ilmiy faoliyatlari va ilm yo'lidagi buyuk xizmatlari haqida hikoya qilishdir. Shuningdek ushbu mazmunli hayot yo'llarini tasvirlayotgan yozuvchi kitobxonga Imom al – Buxoriyning qilgan amallari, aytgan so'zlari va xatti – harakatlari vositasida, qaysidir ma'noda har bir inson komil inson bo'lishi uchun kerak bo'lgan bir qancha fazilatlarga urg'u beradi va kitobxonni ham ana shunday fazilatlarni o'zida mujassam qilishga chorlaydi. Yozuvchining: “U zot biror narsani niyat qilsalar, uni albatta amalga oshirar edilar. Dunyoning har qancha mol – u matohi u kishining niyatlarini o'zgartira olmas edi. Mol – dunyoga uchib lafzlaridan also qaytmas edilar,” [2.87] - degan mana shu birgina jumlasini Imom Buxoriy shaxsiyatini ochib berishda katta rol o'ynaydi.

Asardagi asosiy urg'u berilgan jihatlardan biri bu ilm olishdir. Bu asar har bir ilm talabida bo'lgan ilmi tolib uchun qaysidir ma'noda qo'llanma bo'lib xizmat qila oladi. Chunki ilm olish dono xalqimiz aytganidek, igna bilan quduq qazishdek, mashaqqatli bir ishdir. Bu haqda buyuk muhaddisning ustoz Shayx Doxiliy hazratlari shunday deydi: “Ilm yugan ko'rmagan asov otga o'xshaydi. Astoydil tirishib, uni jilovlab olmasa also tutqich bermaydi” [2.33]. Imom Buxoriy nafaqat ana shu asov otni jilovlay oldi, balkim u ilmni tarqatdi, yuzlab shogirdlarga ustozlik qildi, o'zidan keyin oradan necha asrlar o'tganligiga qaramay, hozirgi kunda ham butun dunyo musulmonlari uchun muqaddas kitob “Qur'oni Karim”dan keying o'rinda turuvchi “Al jome as sahih” kitobini va boshqa ko'plab ahamiyati jihatidan ilm ahli uchun juda ham muhim bo'lgan asarlar yozib qoldirdi. Adib buyuk muhaddis misolida haqiqiy ilmi tolib qanday bo'lishi kerakligini yoritib bergan. Uning biron bir soniyani ham bekor o'tkazmay ilm olishga harakat qilishi kishini hayratga soladi. Uning bu darajada ilm olishga ishtiyoqmand bo'lishida uning onasi Fotimaning xizmatlari, albatta, kattadir. U yolg'iz o'zi farzandlarini nafaqat katta qildi, balkim ularga yaxshi tarbiya ham berdi va atigi 16 yoshli o'g'lini yolg'iz o'zini ilm olishi uchun ulkan bir shaharda qoldiradi. Bunday ishni faqatgina farzandining istiqboli har narsaga tayyor bo'lgan onagina qila olishi mumkin. Uning bunday jonkuyarligidan ota – onaning farzand tarbiyasi roli qanchalik katta ekanligini ko'rishimiz mumkin. Asarda aytilishicha: “ilm talabi uchun to'rta “kof” kerak, bular:

1. Kissayi podar – ya'ni otaning kissasi, nafaqasi
2. Kosayi modar – onaning kosasi taom va parvarishi
3. Kashishi ustoz - ustozning e'tibori
4. Ko'shishi shogird – shogirdning harakati.” [2.33]

Mana shu narsalarni o'zida jam qilolgan insongina haqiqiy ilmi tolib bo'lishi mumkin.

Asardagi yana bir muhim mavzulardan biri bu ustoz va shogird munosabatlaridir. Shogirdlarning ustozlariga bo'lgan hurmati kamayib ketayotgan, hattoki bazida o'quvchilarning ustozlariga nisbatan har xil hurmatsizlik qilish holatlari kuzatilayotgan hozirgi zamonamizda yozuvchining bundan deyarli 12 asr ilgarigi islom olamining oltin asri deb atalgan asrda yashab, ilmga o'zlarini fido qilgan buyuk shaxslarning o'zaro ustoz – shogird orasidagi munosabatlari haqida yozishi, har bir kitobxon qalbida ustozlarga nisbatan hurmat uyg'otishi shubhasizdir. Masalan, kitobda keltirilgan Ali Ibn Abu Tolib roziyallohu anhuning ushbu so'zlari: “Menga bir dona harf o'rgatgan kishining quliman. Xohlasa sotsin, xohlasa qullikdan ozod qilsin, xohlasa qul qilib ishlatsin,” [2.43] - ustoz atalmish zotning qanchalik hurmatga sazovor ekanligining isbotidir.

Qolaversa, Imom Buxoriy va uning ustozlari bilan munosabati, ular bilan suhbatlaridan keltirilgan parchalar, buyuk olimning shogirdlari bilan yuz bergan har xil hodisa va o'zaro munosabatlarini ko'rsatib beruvchi turli xil hikoyalarda biz u insonning ustozlariga nisbatan cheksiz hurmatini, shogirdlariga nisbatan esa cheksiz mehr – u muruvvatini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, ustozlarning ham hech qachon kibrga berilmasligi kerakligi haqida Imom Buxoriy va u zotning hurmatli ustozlari Shayx Dohiliy o'rtasida yuz bergan bir voqea orqali adib kitobxonga ustalik bilan tushuntirib bergan. Ushbu voqea shunday ro'y beradi:

Dohiliy bir hadisni aytayotgan paytda u hadisning roviysini adashtirib yuboradi, shunda yosh Muhammad ustozlari xato aytganligini aytadi va boshqa kitobdan aynan ushbu hadisni ko'rishini aytadi va u haq edi. Shayx Dohiliy esa: insonchilik – da, bandasi doim xatokor, deya xato qilganligini barchaning oldida tan oladi. Bu haqida adib xulosa qilib shunday deydi: “endigina o'n bir yoshga kirgan talaba (Imom Buxoriy) Dohiliyday mashhur muhaddis olimning xatosini ko'rishga, buni uning yuziga ayta olishga jur'at topdi. Shunday ulug' olim esa hali ona suti og'zidan ketmagan talaba bola qarshisida xatosini tan olib, uzr so'ray olishdan orlanmadi.” [2.40] Imom Buxoriyning ustoz tanlashi haqida esa yozuvchi shunday deydi: “Muhammad Buxoriy ustoz tanlashda ularning yoshi yoki mavqeyiga emas, asosan odilligi, zobti (ustozidan olgan hadisini mukammal tarzda yodlab yoki yozib saqlashi), rivoyatining beshubha, tozaligi va e'tiqodining sog'lomligiga e'tibor berar edi. U doimo kishi iymonining belgisi shubhasiz, ustoz hurmatiga va duoi xayriga sazovor bo'lishdir deb bilardi”. [2.51]

Asarni o'qishda davom etar ekanmiz Muhammad Buxoriyning hayoti har doim oson bo'lmaganligini, barcha uni yaxshi ko'rishi, hurmat qilishiga qaramay, uni ko'ra olmaydigan, hasadgo'y insonlar ham bo'lganligi va ular Imom Buxoriyga turli xil yo'llar bilan fitna qilib, unga zarar yetkazishga uning insonlar oldida hurmatini to'kishga harakat qilishganiga ham guvoh bo'lishimiz mumkin. Turli xil tuhmat – u fitnalarga qaramay, Buxoriy har doim qaddini tik tutdi va ilm yo'lini yanada mahkamroq tutishda davom etdi va bu unga yanada ko'proq shuhrat keltirdi. Aynan mana shunday hasadgo'y ba'zi bir olim degan nomga noloyiq bo'lgan kimsalar Imom Buxoriy va Buxoriy amiri o'rtasidagi munosabatlarga sovuqchilik tushirishdi va buyuk muhaddis umrining oxirida o'z tug'ilib – o'sgan joyi, ona tuprog'idan uzoqda yashashga majbur bo'ldi. Buxoriy bunday shuxratparast, faqat o'z manfaati haqida o'ylaydigan olimlar haqida shunday deydi: “olimning xatosi xuddi cho'kayotgan kemaga o'xshaydi, kema bilan birga juda ko'p odam suvga g'arq bo'lib ketadi”. [2.191]

Imom Buxoriy hayotining bosh Shiori bu ezgu o'ylar va ezgu amallar qilish edi. U har qanday vaziyatda o'z nafsini yengishga va o'z ezgu fazilatlariga sodiq qolishga harakat qilardi. Asarda juda qattiq qoralangan fazilatlarda biri bu yolg'onchilikdir. Bu haqda adib bir cho'pon va Imom Buxoriy o'rtasida bo'lib o'tgan bir voqeani hikoya qilib beradi va xulosa sifatida buyuk muhaddisning: “Hayvonni aldashga jur'at qilgan odamdan hadis qabul qilib bo'lmaydi,” [2.131] - degan o'rinli fikri vositasida ul zotning qanchalik yolg'ondan hazar qilganligini, hattoki hayvonga nisbatan ham yolg'on ishlatmasligini yoritib bergan.

Ushbu asarda yozuvchi faqatgina Imom Buxoriy hayoti haqida hikoya qilibgina qolmay, u islom dini haqida va hadis ilmi haqida ham kitobxonlarga juda ham ko'plab foydali ma'lumotlar berib o'tadi. Masalan, yozuvchining roviyning hadisi qabul qilinmog'i uchun qanday shartlar bor ekanligi va shunga o'xshash har xil hadis ilmiga doir misollar keltirib o'tganligini aytishimiz mumkin. “Roviy so'zi arab tilidan olingan bo'lib, hikoyachi, qissa aytuvchi, xabar, ma'lumot beruvchi degan ma'nolarni bildiradi.” [4]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, biz buyuk kelajak qurishdek oliy maqsadni oldimizga qo'ygan ekanmiz, ushbu maqsadimizga o'z tariximizni, tarixiy shaxslarimizni bilmasdan, ularni ibratli hayotlari bilan tanish bo'lmasdan turib erisha olmaymiz. Shuningdek, hozirgi kunda yo'qolib

borayotgan komil inson va komil insonga xos fazilatlar tushunchalarini yozuvchi ushbu asarning bosh qahramoni nafaqat o`z davrida balkim bugungi kunda ham buyuk daho zot, muhaddis sifatida tanilgan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Ibrohim al Buxoriy hayoti misolida o`ziga xos mahorat va ustalik bilan yoritib beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Journal of universal science research ISSN (E): 2181 – 4570
2. Ahmad Muhammad Tursun “Sohilsiz dengiz” roman -Toshkent Hilol nashr, 2020.
3. Adabiyotshunoslik nazariyasi X.Umarov : Oliy o'quv yurtlari uchun darslik T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. — 264 b
4. Dilmurod Quronov, Zokirjon mamajonov, Mahhura Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug`ati / f.f.d Dilmurod quronovning umumiy tahriri ostida. Toshkent: Akademnashr, 2010 – yil – 400 b.